

Surxondaryolik g'allakorlar mamlakatimizda birinchi bo'lib, tovar don topshirish rejasini ortig'i bilan bajardi



Surxondaryolik g'allakorlar mamlakatimizda birinchi bo'lib, tovar don topshirish rejasini ortig'i bilan bajardi

Qishloq xo'jaligi uchun ob-havo noqulay kelgan bu yilgi sharoitda 90,8 ming gektar maydonda mahalliy iqlimga mos, ertapishar g'alla navlarini parvarishlagan voha mirishkorlari shu kungacha qabul punktlariga 191 ming 116 tonna sara tovar don topshirdi. Don yetishtirishda boy tajribaga ega viloyat g'allakorlarining bu yutug'i keyingi yillarda qishloq xo'jaligida yuz bergan tub o'zgarish va yangilanishlarning amaldagi samarasidir. Prezidentimiz tashabbusi bilan don yetishtirishning klaster usuliga o'tkazilgani yerga, mulkka egalik hissini, g'allakorlarning moddiy manfaatdorligini yanada oshirdi. Maysalarni parvarishlashda zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanib, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida sifatli

bajarishga intilishni kuchaytirdi. Shunga muvofiq viloyatda bir tekis undirib olingan maysalarni parvarishlash, oziqlantirish va sug'orish yumushlari mavjud agrotexnik tadbirlar asosida uyushqoqlik bilan bajarildi. O'rim-yig'im mavsumini sifatli o'tkazish uchun barcha ishlar otryad usulida tashkil etilib, har bir guruhga tegishli soha mutaxassislari jalb etildi. Mavjud kombaynlar va tashuv texnikalaridan samarali foydalanish uchun ko'chma ta'mirlash ustaxonalari hamda yoqilg'i-moylash materiallari yetkazib beruvchi transport vositalarining tezkor xizmat ko'rsatishi yo'lga qo'yildi.

Viloyat g'allakorlari erishgan bu yutuqqa Sherobod tumani g'allakorlari 26 ming 380 tonna, Muzrabot tumani 24 ming tonna, Qiziriq tumani 21 ming 30 tonna, Denov tumani 20 ming tonna, Qumqo'rg'on tumani 18 ming 380 tonna, Jarqo'rg'on tumani 17 ming 989 tonna, Bandixon tumani 10 ming 991 tonna, Termiz tumani 6 ming 715 tonna, Angor tumani 6 ming 500 tonna, Sariosiyo tumani 5 ming 610 tonna sara don topshirib, munosib hissa qo'shdi. Angor tumanidagi "Saidnosirxon", "Saidmalikxon-Angor", Denov tumanidagi "Bunyodkor Tasmaso", Jarqo'rg'on tumanidagi "Jarqo'rg'on", Termiz tumanidagi "Sharof Mohinur", Sherobod tumanidagi "Asl Surxon paxtasi" kabi ko'plab fermer xo'jaliklari va Angor tumanidagi "Angor Surxon g'ururi", Sariosiyo tumanidagi "Surxon Golden Treed" mas'uliyati cheklangan jamiyati korxonalari 80-85 sentnerdan sara don yig'ib oldi. Joriy yilda voha g'allakorlari gektarlar hosildorligini o'rtacha 63,8 sentnerga yetkazib, mavjud maydonlardan 579 ming 500 tonna sara don ishlab chiqarish va o'tgan yilga nisbatan 80,2 ming tonna ko'p xom ashyo yig'ib olishni mo'ljallamoqda.

Viloyatda g'alla o'rim-yig'imi qizg'in davom etmoqda.